

October, 30<sup>th</sup> 2021

## LIVER CERROSIS DISEASE AND TREATMENT METHODS

### Akbarova Muruvvat Sobirovna

Assistant of the Department of Pharmacology and Physiology of the Tashkent Pediatric Medical Institute  
+998946620904  
muruvvat0904@mail.com

### Nurmatov Yuldasali Ergashali oglu

Tashkent Pediatric Medical Institute 1 Pediatrics 211 group student  
+998333409096

**Annotation:** We reflect on the serrosis of the liver, its origin, its symptoms and Prevention.

**Keywords:** Hepatitis A, B, C, G

## JIGAR SERROZI KASLLIGI VA DAVOLASH USUL HAMDA USLUBLARI

### Akbarova Muruvvat Sobirovna

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Farmakologiya va fiziologiya kafedrasi assistenti +998946620904  
muruvvat0904@mail.com

### Nurmatov Yo'ldoshali Ergashali o'g'li

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1 pediatriya 211-guruh talabasi  
+998333409096

**ANNOTASIYA:** Jigar serrozi, kelib chiqishi, uning alomatlari va oldini olish haqida fikir yuritamiz.

**Аннотация:** мы поговорим о циррозе печени, его происхождении, симптомах и профилактике.

**Kalit so'zlar:** Gepatit A, B, C, D

**Ключевые слова:** гепатит А, В, С, Г

*Sizlar eng to'g'ri yo'lni - bilim yo'lini tanlagansizlar. Hech qachon o'qishdan, izlanishdan to'xtamanglar. Vaqt tez o'tadi, ertaga hayotda munosib o'rinn topishingiz, zamonga mos mutaxassislar bo'lib yetishishingiz uchun bugun o'qishingiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev.<sup>1</sup>*

Jigar sirrozi nima degan savol ko'pchilik fuqarolarimizga nomalum bo'lishi tabiy xol, jigarning serrozga uchrashi avvalo-jigarning surunkali kasalligi bo'lib, jigar parenximatoz to'qimasining tiklanmas ravishda fibroz biriktiruvchi to'qima yoki stroma bilan almashininishi orqali yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi. Sirrotik bu-“Siroz - jigar lobulalarini biriktiruvchi to'qima orqali transplantatsiya qilish. Siroz - bu jigar to'qimalarining chandiqlanishini tasvirlash uchun ishlatalidigan atama”<sup>2</sup>. Jigar hajmi kattalashgan yoki kichraygan, noodatiy ravishda zich, o'nqir-cho'nqir bo'ladi. O'lim holati terminal bosqichda turli xil vaziyatlarga qarab, 2-4 yil ichida, bemorning kuchli og'riq sezishi va azoblanishi bilan sodir bo'ladi ayrim xolatlarda serroz yashirin kechishi ham ma'lum. Epidemiologiya sabablari, patogenez, bosqichlari, jigar sirrozi alomatlari, asoratlari, tashxislash, jigar sirrozini davolash, oldini olish inson hayotining eng muhum qismlaridan biridir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda jigar sirrozi 35-60 yoshdagi fuqarolarda ko'p kuzatilgan bo'lib, bemorlar o'limining 6 ta asosiy sabablaridan biri har 100 ming aholi soniga 14-30 ta kasallanish holati

<sup>1</sup> [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifidagi nutqidan. Andijon shahridagi “Yangi avlod” xususiy maktabi faoliyati bilan tanishish jarayonidagi nutqi.


<sup>2</sup> [www.Vikipedia](http://www.Vikipedia) Siroz. Bepul ensiklopediya Bu sahifa oxirgi marta 2021 yil 12 aprel

October, 30<sup>th</sup> 2021

to'g'ri keladi.<sup>3</sup>

Yuqoridagi rasimda ko'rib turganingizdek har yili dunyoda gepatit B virusini tashish fonida rivojlangan virusli jigar sirrozi va hepatosellyulyar karsinoma tuyfali 40 million kishi vafot etadi. MDH mamlakatlarida bu kasallik aholining 1 foizida uchraydi.

Ko'pincha jigar sirrozi uzoq muddat alkogol bilan intoksiatsiyalanish (turli ma'lumotlarga ko'ra, 40-50% dan 70-80% gacha), parazitar infektsiya va virusli B, C va D



gepatitlari (30-40%) fonida rivojlanadi.

Sirroz rivojlanishining kamroq kuzatiladigan sabablari-o't yo'llari kasalliklari (jigar ichi va tashqarisida), dimlanishli yurak yetishmovchiligi, turli kimyoviy moddalar (gepatotoksinlar) va dorilar bilan zaharlanish.

Serroz shuningdek modda almashinuvining genetik buzilishlari (gemoxromatoz, hepatolentikulyar, degeneratsiya, 1-antitripsin yetishmovchiligi) va darvoza venasi tizimidagi okklyuzion jarayonlar (fleboportal sirroz) mavjudligida ham rivojlanishi mumkin.<sup>4</sup>

Ko'p oy va yillar davomida hepatotsitlarning genomi o'zgaradi va patologik o'zgargan hujayralarning kloni yaratiladi. Natijada immun-yallig'lanish jarayoni rivojlanadi. Sirroz patogenezining quyidagi bosqichlari ajratiladi. Etiologik omillar: viruslarning sitopatogen ta'siri, immun mexanizmlar, hepatotoksik sitokinlar, xemokinlar, prooksidantlar, eykozonoidlar, atsetaldegid, temir, lipidlarning perekisli oksidlanishi mahsulotlari ta'siri;

Ito hujayralari funktsiyasining faollashishi, bu perisinusoidal fazoda ortiqcha biriktiruvchi to'qima o'sishi va jigarning perisellyulyar fibroziga olib keladi;

Sinusoidlar kapillyarizatsiyasi va hepatositlarning ishemik nekrozi rivojlanishi bilan tomir bo'shlig'inining torayishi natijasida jigar parenximasining qon bilan ta'minlanishi buzilishi;

Gepatotsitlarning sitolizi immun mexanizmlarining faollashishi. Gepatotsitlarning ko'priksimon nekrozida shikastlanish hududiga T-limfositlari jalb qilinadi, ular esa fibroblastsimon xususiyatlarga ega bo'ladigan ito hujayralarini faollashtiradi: u hujayralar I tipdagisi kollagen sintez qiladi va bu o'z navbatida oxir-oqibat fibrozga olib keladi. Bundan tashqari, jigar parenximasida mikroskopik darajada markaziy venasi bo'limgan soxta segmentlar hosil bo'ladi.

Jigar serrozining alkogol maxsulotlarini istemol qilgan bemorlardagi bosqichlari: o'tkir alkogolli gepatit hamda fibrozli va mezenximal reaksiyali jigar distrofiyasi. Jigar serrozining eng muhim omil - alkogolning to'g'ridan-to'g'ri toksik ta'siri, shuningdek, autoimmun jarayonlar oqibatida hepatotsitlarning nekrozi.

Autoimmun-bu muhim omil bo'lib, organizmning o'z to'qimalariga immunositolarning sensibilizatsiyasi hisoblanadi. Autoimmun reaksiyaning asosiy nishoni jigar lipoproteidi hisoblanadi. Kasallik bir necha bosqichlarda boradi, har bir bosqich o'ziga xos klinik belgilarga ega. Uning qanchalik rivojlanganligiga qarab, nafaqat bemorning ahvoli, balki terapiya usullari ham farq qiladi. Kasallik bir qancha fazalarga bo'linadi. Kompensatsiyalangan fazada kasallik o'zini hech qanday namoyon qilmaydi. Patologiya

<sup>3</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) 2020-yil

<sup>4</sup> Medlife.uz sayti o'zbek tilida tibbiy ma'lumotlar keng tarqatish uchun yaratilgan.

October, 30<sup>th</sup> 2021

bu bosqichda tashxislansa, unda yuzaga kelgan jigar yetishmovchiligini dori vositalari yordamida kompensatsiyalash (o'mini qoplash) mumkin.

Subkompensatsiyalangan faza bosqichda kasallikning alomatlari yaqqolroq sezila boshlaydi. Bu esa nobud bo'lgan gepatotsitlar sonining ortganligidan dalolat beradi. Ushbu bosqichda bemorda zaiflik, apatiya (befarqlik), mehnat qobiliyatining pasayishi, ko'ngil aynish, vazn yo'qotish kabi belgilar kuzatiladi. Erkaklarda ginekomastiyaning birinchi belgilari qayd qilinishi mumkin. 3-bosqichda normal ishlayotgan gepatositlar soni o'ta kamayadi. Bu jigar yetishmovchiligi rivojlanishi va kasallik belgilari ortishiga olib keladi. Bemor terisi sariq tusga kiradi, qorinda og'riqlar sezila boshlaydi. Ushbu bosqichda ko'pincha astit (qorin bo'shilg'iда suyuqlik to'planishi) rivojlanadi.

Terminal fazada kastalikning yakuniy bosqichida a'zo o'ta jiddiy shikastlanganligi tufayli o'z vazifasini bajara olmay qoladi. Bemor kuchli og'riqlardan aziyat chekadi, shu tufayli unga kuchli og'riq qoldiruvchi vositalar tayinlanadi. Ushbu bosqichda patologiya rivojlanishini to'xtatishning imkoniyati yo'q. Prognoz, odatda, salbiy. Yangi jigar ko'chirib o'tkazilmasa kasallikning og'ir asoratlari tufayli o'lim sodir bo'ladi. Jigardan tashqari bo'lgan ko'plab alomatlар darvoza venasi tizimida bosimning ortishiga olib keladigan sinusoidlarda bosimning ko'tarilishi bilan bog'liq. Kasallikning yana bir xarakterli alomati - "Meduza boshi" - oldingi qorin devori venalarining qon bilan to'lib ketishidir.

Sirroz uchun xos bo'lgan umumiy belgilarga zaiflik, mehnat qobiliyatining pasayishi, qorinda yoqimsiz tuyg'ular, dispepsik buzilishlar, tana haroratining ko'tarilishi, bo'g'imlardagi og'riq, meteorizm, qorinning yuqori yarmida og'riq va og'irlik hissi, ozib ketish, asteniya va boshqa shu kabi belgilar kiradi.

Kasallik uchun ishqorli fosfataza, ALT, AST faolligining ortishi, leykositoz xarakterlidir. Bu qonni biokimyoiyi tahlil qilishda aniqlanadi. Gepatolienal sindromda leykopeniya, trombotsitopeniya, anemiya va suyak iligida hujayraviy elementlarning ortishi bilan namoyon bo'ladigan gipersplenizm rivojlanishi mumkin. Kengaygan va shoxlangan venoz kollaterallar angiografiya, kompyuterli tomografiya, ultrarovushli tekshiruv yoki jarrohlik aralashuvi davomida ko'rindi. Kerak bo'lganda jigar (tekshiruv asosida) MRT va jigar tomirlari dopplerometriyasi o'tkazilishi mumkin. Jigar sirrozini davolash dorilar qabul qilish va qat'iy parhezga amal qilish hisoblanadi, biroq, rivojlanib bo'lganda ortga qaytmaydigan holat hisoblanadi. Bunday holatda jigarni davolab bo'lmaydi, bemor hayotini saqlab qolishning yagona yo'li-jigar ko'chirib o'tkazishdir. Kuchli astsitsda qorindan suyuqlik chiqarib olish amalga oshirilishi mumkin.

Gepatitni malakali gepatolog yordamida davolash va belgilangan terapevtik tartibga rioya qilish va dori-darmonlarni o'zboshimchalik bilan qabul qilishni cheklash lozim. Zararli sanoat korxonalarida ishlashdan qochish, shifokor tavsiyasiga ko'ra vitamin va mineral komplekslar qabul qilish, yog'li, qovurilgan va achchiq ta'mli, konservalangan va yarim tayyor mahsulotlarini iste'mol qilmaslik tafsiya etiladi. Qolaversa yomon odatlardan, ayniqsa, alkogolli ichimliklarni iste'mol qilishdan bosh tortish, har yili ovqat hazm qilish tizimining endoskopik tekshiruvidan o'tish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish va shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish, virusli gepatit B ga qarshi vaktsina olish kasallikni oldini olishda yordam beradi.

Yuqorida ma'lumotlardan xulosa qilib shuni takidlashimiz mumkunkiy to'la serrozga chalinib bo'lgan jigarni davolab bo'lmasligini bugungi ilim fan taraqqiyot etgan davir uchun ham imkonyatsiz emas, baliky serrozga uchragan jigarni o'rninga shikastlanmagan sog'lom jigar tarnsplotatsiya qilish yo'li orqali davolsh mumkin. Bunday jarayonlar bugungi kunda butun dunyo miqiyosida keng qo'llanib kelinayotgan jarayon bo'lib bemorlardan kata miqdorda pul mablag'lari sarflanishiga olib keladi.

Xastalangan jigar serroziga uchragan bemorni hayotini saqlab qolishning yagona yo'llari jigar ko'chirib o'tkazish, jigar shikastlanganlik miqdori 40 foiz bo'lsa uni davolash, kerakli mualajalar orqali serroznning oldini olish mumkin. Shuning uchun kasallik to'la rivojlanib ulgurmay turib, uning yuqoridaq oldini olish choralarini ko'rish tafsiyalari orqali amaliyotda sinab ko'rishlik maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifidagi nutqidan. Andijon shahridagi "Yangi avlod" xususiy maktabi faoliyati bilan tanishish jarayonidagi nutqi. 29.09.2021
2. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
3. [www.Vikipedia](http://www.Vikipedia) Siroz. Bepul ensiklopediya
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) 2020-yil
5. Medlife.uz sayti o'zbek tilida tibbiy ma'lumotlar keng tarqatish uchun yaratilgan

October, 30<sup>th</sup> 2021

6. Атлас анатомии человека. Т.: 1974
7. Физиология О.Т.Алявия, Ш.К.Кодиров, А.А.Нишанова Т.: 2016
8. Anatomiya A.Ahmedov T.: 2018
9. Patalogik fiziologiya M.M.Haqberdiyev, N.N.Nigmatov T.: 2009